

YANGI O'ZBEKISTON

Ijtimoiy-siyosiy gazeta

№ 122 (911), 2023-yil 21-iyun, chorshanba



www.yuz.uz



yuz.uznews



yuz_official



yuz.uz_news



YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI — AMALDA

NAVQIRON AVLOD VAKILLARI

**kelajagimiz tayanchi,
ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi**

Mamlakatimizda so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy islohotlar natijasida taraqqiyotning mutlaqo yangi bosqichiga qadam qo'yildi. Shu yillarda barcha sohalarida bo'lgani kabi yoshlarga oid davlat siyosatida ham

tarixiy va olamshumul o'zgarishlar ro'y berdi. Buning asosi sifatida islohotlar dasturining eng birinchi va ustuvor yo'nalishi yoshlar masalasi etib belgilanganligini ta'kidlash joiz.

30

Davomi 5-betda



2023 O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI PREZIDENTI SAYLOVI

Gazetamizning bugungi sonida Tadbirkorlar va ishbilamonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning Saylovoldi tashviqoti bo'yicha maqola chop etilmoqda.

Mazkur maqola O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzodlarga Saylovoldi tashviqoti uchun ajratilgan bepul nashr maydoni doirasida e'lon qilinmoqda.

3-betga qarang.

MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIDA

MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISH 28-IYUNDAN BOSHLANADI

Markaziy saylov komissiyasining 20-iyun kuni bo'lib o'tgan majlisida saylovchilarning muddatidan oldin ovoz berishini tashkil etish, Prezident saylovini o'tkazish davrida jamoat tartibini hamda xavfsizligini ta'minlash va boshqa masalalar ko'rib chiqildi.

Majlisda Saylov kodeksiga binoan, muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovi kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchilar uchun saylov uchastkalarida muddatidan oldin ovoz berish o'tkazilishi yuzasidan qaror qabul qilindi. Unga ko'ra, muddatidan oldin ovoz berish 2023-yil 28-iyun kuni

boshlanib, 2023-yil 5-iyul kuni yakunlanadi. Saylov uchastkasida muddatidan oldin ovoz berish vaqti ish kunlari soat 9.00 dan soat 18.00 ga qadar, dam olish va bayram kunlari soat 11.00 dan soat 17.00 ga qadar davom etadi.

Davomi 2-betda

YANGICHA YONDASHUVLAR

FINLYANDIYA TAJRIBASI: UZLUKSIZ TA'LIM MUVAFFAQIYATI

o'qituvchilar tayyorlash tizimiga bog'liq

Bo'lg'usi pedagoglar intellektini rivojlantirish, kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish dunyo miqyosida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Jumladan, mamlakatimizda ham jamiyatimiz a'zolari, xususan, yoshlarning bilimi, saviyasini oshirish uchun, avvalo, ilm, ma'rifat, yuksak ma'naviyatni kamol toptirish asosiy vazifa etib belgilangan. Ushbu sa'y-harakatlarni amalga oshirishda o'qituvchining mahorati, ilg'or tajribasi juda muhim.

Davomi 5-betda



27-IYUN — MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

DAVLAT XIZMACHISI VA OAV MUNOSABATLARI jamiyat rivojida qanday o'rin tutadi?

Axborot almashinuvi tezkorligi, so'z erkinligi va jamoatchilik fikri e'tiborga olinishi, ommalashishi hamda bu sohada reytinglar e'lon qilib borilishi ham u yoki bu soha rivojiga, imijiga bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Zamonaviy jamiyatda davlat xizmatchisining

jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari bilan aloqalari rivojlanishi bu munosabatlarni tartibga solishga oid qonunchilikni takomillashtirishni, umuman, mazkur masalaga alohida e'tibor berishni talab etadi.

Davomi 2-betda

MUQOBIL ENERGETIKA

"Quyoshli xonadon" FUQAROLAR DAVLATGA ELEKTR ENERGIYASI SOTMOQDA

Karmana tumanida yashovchi mehnat faxriysi Salomat Xo'jayeva bir oy avval xonadoniga quyosh paneli o'rnatib, bugungi kunda ishlab chiqarilayotgan elektr energiyasidan foyda ham olmoqda. Dastlab bu haqdagi gap-so'zlarga ishonib-ishonmay uyiga quyosh paneli o'rnatgan onaxon keyin bu rost ekaniga, elektr energiyasini nafaqat tejash, balki undan daromad ham olish mumkinligiga amin bo'ldi.

Davomi 4-betda

HAMKORLIK

ILDIZLARI TUTASH QADIM MADANIYAT

Ayni kunlarda Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti — TURKSOY o'zining 30 yilligini nishonlamoqda. Tashkilot 1993-yilda O'zbekiston, Ozarbayjon, Qozog'iston, Qirg'iziston, Turkmaniston va Turkiya o'rtasidagi kelishuv natijasida tashkil etilgan. Keyinchalik unga boshqa davlatlar kuzatuvchi sifatida qo'shildi. TURKSOY tashkilotining maqsadi — turkiy xalqlarning ma'naviy yaqinligi va qardoshlik birligini mustahkamlash, turkiy madaniyatni dunyoga tanitish va uning an'analari kelajak avlodlarga yetkazish hisoblanadi.

Tarixi, tili, dini, urf-odat va an'analari, orzu-intilishlari mushtarak bo'lgan xalqlarimiz o'rtasida do'stlik va hamjihatlik munosabatlari mustahkamlashda TURKSOYning ulkan o'rni hamda ahamiyati bor. Tashkilot doirasida turkiy xalqlarning ma'naviy birligini ta'minlash, mushtarak qadriyatlarimizni asrab-

avaylash va rivojlantirish, umumiy boyligimiz bo'lmish noyob tarixiy merosimizni o'rganish va targ'ib etish, buyuk ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish borasida keng ko'lami madaniy-gumanitar dasturlar amalga oshirib kelinmoqda.

Davomi 6-betda

NUQTAYI NAZAR

SPIN-OFF KOMPANIYALAR

Eron tajribasi O'zbekistonda ham samara bermoqda



Jamoliddin BOBOXONOV,
Innovatsion rivojlanish
agentligi boshqarma
boshlig'i

O'zbekiston tashqi siyosatda do'stlik va o'zaro ishonchli hamkorlik aloqalarini faol kengaytirish tarafdori. Oxirgi yillarda oliy darajadagi tashriflar sonining ortgani, xorijiy davlatlar rahbarlarining yurtimizga tez-tez tashrifi ana shu hamkorlik munosabatlarning yanada rivojlanishiga xizmat qilmoqda. Asosiysi, ushbu uchrashuvlarda barcha tomonlar uchun birdek manfaatli bitimlar imzolanyaptiki, natijada hamkorlik ko'lamini bilan birga, erishilayotgan natijalar ham ortib boryapti.

tijorat mahsulotlari hamda xizmatlariga aylantiradi. Ularning faoliyati innovatsiyalarning keng tarqalishi, yuqori sifatli ish o'rinlari yaratilishi va innovatsion tadbirkorlikning rivojlanishiga xizmat qiladi. Ayni vaqtda, ular Eronda ilmiy kashfiyotlarni tijoratlashtirish va texnologik rivojlanishning manbasiga aylangan. Akademik tadqiqotlarni sanoat texnologiyalariga aylantirgan holda, innovatsiyalar katalizatori vazifasini ham bajarmoqda.

Yuqori texnologiyali spin-off kompaniyalari mamlakatning iqtisodiy rivojlantirishiga katta hissa qo'shyapti. Eksportni ko'paytirish, iqtisodiyotning turli tarmoqlari mahsuldorligi va texnologik darajasini oshirishga yordam bermoqda. Bundan tashqari, ular yangi texnologiyalarni joriy etib borishi tufayli ijtimoiy va ekologik muammolarni hal qilishda ham katta tayanchga aylangan.

Masalan, Eronning nanotexnologiyalar ishlab chiqarishga ixtisoslashgan "Fanavaran Nano-Meghyas" spin-off kompaniyasini olaylik. U yerda energiya, atrof-muhit va sog'liqni saqlash sohalarida ishlatiladigan noyob nanokompozitlar va nanomateriallar ishlab chiqariladi. Kompaniya o'zining innovatsion mahsulotlari va texnologiyalari tufayli xalqaro maydonda munosib o'rinni egallashga erishdi va hozir nanotexnologiya sohasida jahonda yetakchilardan hisoblanadi.

Mamlakatdagi yana bir spin-off korxonasi — "Sodour Ahrar Shargh Co" esa tibbiyot jihatlarida ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Ular keng turdagi mahsulotlar, jumladan, yurak-qon tomir kasalliklariga tashxis qo'yish va davolash tizimlarini tayyorlab, dunyoning ko'plab mamlakatlariga eksport qilmoqda.

Eronning telekommunikatsiya sohasida yetakchi kompaniyalaridan biri "Iran Telecommunication Manufacturing Company" ham spin-off texnologiyasi asosida ish olib boradi. Kompaniya keng turdagi aloqa mahsulotlari va uskunali, xususan, raqamli telefon stansiyalari, optik ma'lumotlarni uzatish tizimlari va mobil aloqa vositalarini ishlab chiqarib, jahon bozorida ancha tanilgan.

Yuqorida ta'kidlaganimizdek, O'zbekiston bu yo'nalishda Eron bilan hamkorlikni yo'lga qo'ygan bejiz emas. Chunki yuqori texnologiyali spin-off kompaniyalarini rivojlantirish tajribasi ilmiy-tadqiqot faoliyati, texnologik taraqqiyot va fanni tijoratlashtirish drayveriga aylanibgina qolmay, ilmiy-texnologik rivojlanish iqtisodiy-ijtimoiy muammolarni hal qilishga ham hissa qo'shishi mumkinligini muhim namunasidir. Eronning bu boradagi muvaffaqiyati innovatsiyalar va iqtisodiy rivojlanishni rag'batlantirish uchun fan va texnologiyalar sohasining davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanishi va ularga sarmoya kiritish muhimligini tasdiqlaydi.

Mamlakatimizda esa oxirgi yillarda ayni shu jihatlar sezilarli faollashgan. Ilm-fan, innovatsiyalarni rag'batlantirish, sohani rivojlantirish orqali barcha sohalarini raqamlashtirishga erishish maqsadida katta moliyaviy sarmoyalar kiritilyapti. Eronning yuqoridagi ilg'or tajribasini o'zimizda qo'llashdan ko'zlangan maqsad ham shundan iborat.

Qisqaca muddatlarda yurtimiz hududlarida farmatsevtika, qishloq xo'jaligi, suv xo'jaligi, tibbiyot, arxitektura, turizm, veterinariya, energetika va metallurgiya sohalariga oid spin-off korxonalar faoliyati yo'lga qo'yildi. Joriy yil iyun oyi holatiga ko'ra, mamlakatimizda 17 ta ana shunday korxonasi ish

olib boryapti. Ular tomonidan 66 turdagi yangi mahsulot hamda xizmat ko'rsatish taklif etilgan bo'lib, 8 milliard so'mlik sotuv amalga oshirilgan, 2,5 million dollarlik eksport shartnomalari tuzilgan. Asosiysi, mazkur korxonalarda 300 dan ortiq ish o'rinlari yaratildi.

Masalan, Andijon viloyatida ish boshlagan "Ipak ko'chat klaster" (spin-off) korxonasi navdor tut ko'chatlari yetishtirmoqda. Korxonani tashkil etishdan maqsad ham aynan yurtimizda ipak qurti ozuqa bazasi sifatida va hosildorligini oshirishdan iborat edi. Shu maqsadda innovatsion korxonada biotexnologiya laboratoriyasi ochildi. O'tgan yili "InnoWeek-2022" ko'rgazmasi doirasida mazkur korxonada Qozog'iston Respublikasining "ACBC OIL" korxonasi bilan umumiy qiymati 2,43 million dollarlik shartnoma imzolashga erishdi. Shartnoma bo'yicha xaridorga 2022-2027-yillar davomida jami 27 million tup navdor tut ko'chatlari yetkazib beriladi.

Samarqand viloyatida esa "BioAgroVet" MCHJ (spin-off) korxonasi faoliyati yo'lga qo'yilgan. Ular import o'rini bosuvchi veterinariya vositalari ishlab chiqaradi. Yana bir spin-off korxonasi — "UNIGEN" MCHJ esa chorvachilik fermer xo'jaliklariga tashxislash bo'yicha ilmiy-amaliy xizmatlar ko'rsatib kelmog'ida.

Toshkent viloyatidagi "BIOTON" MCHJ (spin-off) korxonasi dorivor o'simliklar xomashyosini chiqarib qayta ishlab chiqarishda ekstraktlar olish va biologik faol moddalar substansiyalarini ishlab chiqarishga ixtisoslashgan. Hozirgi kunda korxonasi tomonidan mahalliy iste'molchilarga 845,2 million so'mlik mahsulot yetkazildi. Rossiya va Niderlandiyaga eksport yo'lga qo'yilgan.

Umuman, bugungi kunda yurtimizning deyarli barcha hududlarida spin-off korxonalar faoliyatini ko'rish mumkin. Ular innovatsion texnologiyalar asosida mahsulot ishlab chiqarish samaradorligini yaxshilash namunasidir. Tajribaning ilmiy va iqtisodiy natijadorligi ham yuqori. Mamlakatimizda ana shunday tajriba va loyihalarni qo'llab-quvvatlash faollashayotgani joylarda ishlab chiqarish ko'lamini kengaytirishga xizmat qiladi.

MARKAZIY SAYLOV KOMISSIYASIDA

MUDDATIDAN OLDIN OVOZ BERISH 28-IYUNDAN BOSHLANADI

Boshlanishi 1-betda

Majlisda Prezident saylovini o'tkazish davrida jamoat tartibini saqlash va jamoat xavfsizligini ta'minlash yuzasidan chora-tadbirlar muhokama qilindi. Ichki ishlar vazirligi, Milliy gvardiya va Favqulodda vaziyatlar vazirligi bo'linmalarining bu yo'nalishdagi vazifalari belgilab berildi. Shuningdek, saylovga tayyorgarlik ko'rish davrida Markaziy saylov komissiyasiga kelib tushgan murojaatlar bo'yicha ko'rilgan choralar komissiya a'zolari tomonidan muhokama etildi va qaror qabul qilindi.



Markaziy saylov komissiyasining muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasi Prezidenti saylovida xorijiy davlatlar va xalqaro tashkilotlardan qatnashadigan kuzatuvchilarni akkreditatsiya qilish to'g'risidagi qaroriga muvofiq, 51 nafar kuzatuvchi akkreditatsiyadan o'tkazildi. Ommaviy axborot vositalari vakillarini akkreditatsiyadan o'tkazish yuzasidan qabul qilingan qarorga muvofiq esa, mahalliy ommaviy axborot vositalarining 300 vakili akkreditatsiya qilindi. Umumiy hisobda akkreditatsiyadan o'tkazilgan amaliyot va xorijiy ommaviy axborot vositalari vakillarining soni 854 nafarni tashkil etmoqda.

Majlisda muddatidan ilgari O'zbekiston Respublikasining Prezidenti sayloviga tayyorgarlik ko'rish va uni o'tkazish yuzasidan 7-Samarqand, 6-Namangan, 12-Xorazm, 5-Navoiy hamda 10-Toshkent viloyat okrug saylov komissiyasi raislarining saylovga tayyorgarlik ko'rish va uni yuqori tashkiliy darajada o'tkazish borasida amalga oshirilayotgan ishlar xususida axborot tinglandi.

Bahor XIDIROVA,
"Yangi O'zbekiston" muxbiri

27-IYUN — MATBUOT VA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI XODIMLARI KUNI

DAVLAT XIZMATHISI VA OAV MUNOSABATLARI jamiyat rivojida qanday o'rin tutadi?

Sevara ZOKIROVA,
yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori

Davlat xizmatchilarining ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari bilan munosabatlarini tartibga solishga oid me'yorlarning qonunchilik hujjatlarida mustahkamlab qo'yilishi davlat xizmatchilarining ham, jamoatchilik vakillarining ham mas'uliyatini oshiradi.



kasbiy madaniyati, xizmat faoliyati davomida hamda xizmatdan tashqari vaqtda odob-axloq, tashqi ko'rinishi va kiyinish uslubining namunaviy qoidalarni belgilaydi.

Ahamiyatli, ushbu qoidalarda ilk bor davlat xizmatchisining jamoatchilik, ommaviy axborot vositalari vakillari bilan munosabatlariga oid odob-axloq qoidalari belgilandi. Unga muvofiq, davlat xizmatchilari ommaviy axborot vositalari bilan o'zaro hamkorlik qilishi, davlat organlari va tashkilotlarining faoliyatini OAVda yoritishga ko'maklashishi kerak.

Davlat siyosati yoki davlat organlari hamda tashkilotlari faoliyati to'g'risidagi ommaviy bayonotlar davlat organlari va tashkilotlari rahbari yoki mazkur yo'nalish bo'yicha vakolatli mansabdor shaxs tomonidan amalga oshiriladi. Shuningdek, qoidalarda ommaviy bayonot berilishi hamda ommaviy holatlar ham aniq ko'rsatib o'tildi. Xususan, ommaviy bayonot matni-mazmuni davlat siyosati yoki davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga aloqador bo'lmasa, ommaviy bayonotda keltiriladigan axborotlar davlat sirlari bilan bog'liq bo'lsa, ommaviy bayonot boshqa davlat organlari va tashkilotlari nufuzini pasaytirish yoki ularning mansabdor shaxslarini kamsitishga yo'naltirilgan bo'lsa, ommaviy bayonot berilishi mumkin emasligi qat'iyl belgilandi.

yo'llashtirish va yangilab borish yo'li bilan davlat organlari faoliyatini ommaviy axborot vositalarida yoritish chora-tadbirlarini ko'radi.

Misol uchun, Germaniya tajribasiga nazar solsak, mamlakatning axborot erkinligi to'g'risidagi qonuniga ko'ra, davlat organlari OAV va fuqarolarga tashkilot faoliyati haqida ma'lumot berishga hamda so'ralgan taqdirda rasmiy hujjatlarni taqdim etishga majbur. Idora va tashkilotlarning axborot xizmatlari ham xuddi bizdagi kabi barcha OAV va ijtimoiy tarmoqlardagi axborotlar monitoringini amalga oshiradi, press-reviz yozadi, matbuot anjumanlari va brifinglarga tayyorgarlik ko'radi, murakkab mavzularni aholiqa tushunarli tarzda yetkazishga harakat qiladi.

Davlat fuqarolik xizmatchilari odob-axloqining namunaviy qoidalarga muvofiq, davlat xizmatida jamoatchilik nazoratini ta'minlash maqsadida jamoatchilik to-

sha'ni hamda qadr-qimmatini kamsitadigan iboralar bo'lsa, davlat xizmatchisi o'z fikrlarining yangilash yoki noto'g'riligini tan olishi hamda sha'ni, qadr-qimmatiga va ishchanlik obro'siga daxl qilingan fuqarodan, agar qonun hujjatlarida boshqa oqibatlar nazarda tutilmagan bo'lsa, kechirim so'rashi shart.

Tashkilot faoliyati bilan bog'liq masalalar, jamoatchilik muhokamasiga sabab bo'layotgan muammolar yuzasidan ommaviy axborot vositalari, jamoatchilik vakillari davlat organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir so'rov yuborishi mumkin. Davlat organlarining faoliyati to'g'risida axborot olishga doir, shuningdek, mansabdor shaxslarning intervyusini tashkil etish to'g'risidagi so'rovi ko'pi bilan yetti kunlik muddatda ko'rib chiqiladi. So'rovi ko'rib chiqish davlat organlari vakolatiga kirmasa, so'rov so'ralayotgan axborotni taqdim etish vakolatiga kiritilgan organga ro'yxatdan o'tkazilgan kundan e'tiboran uch ish kuni ichida yuboriladi, axborotdan foydalanuvchi esa bu haqda xabardor qilinadi.

Rasmiy nashrlarda, ommaviy axborot vositalarida e'lon qilingan yoxud rasmiy veb-saytlarga joylashtirilgan axborot so'ralganda davlat organlari axborot e'lon qilingan rasmiy nashrning, ommaviy axborot vositasining nomi, chiqarilish sanasi hamda raqamini yoki so'ralayotgan axborot joylashtirilgan rasmiy veb-saytning elektron manzili ko'rsatgan holda havola



monidan davlat organlari va tashkilotlari faoliyatiga oid ayblov yoki tanqid bildirilgan taqdirda, davlat organlari va tashkilotlari unga nisbatan bildirilgan ayblov yoki tanqidga ommaviy izoh yoki raddiya berishi lozim. Agar ommaviy bayonotda fuqarolar

berishi mumkin. So'rov rad etilganda axborotdan foydalanuvchiga asoslanirilgan javob yuboriladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 16-iyundagi "Davlat organlari va tashkilotlarining faoliyati ochiqligini ta'min-

lash, shuningdek, jamoatchilik nazoratini samarali amalga oshirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi farmoni bilan davlat organlarining jamoatchilikka axborot berish tizimi mustahkamlangan. Unga ko'ra, davlat organlari va tashkilotlari har yili 1-martgacha o'z faoliyatiga oid hisobotni rasmiy veb-saytlarga joylashtirib, 10-martgacha uni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish joyi va vaqti haqida xabar berishi, 1-aprelgacha o'z faoliyatiga oid hisobotni keng jamoatchilik ishtirokida muhokama qilish uchun matbuot anjumanlarini o'tkazishi lozim. Farmon bilan davlat organlari O'zbekiston Respublikasining ochiq ma'lumotlar portali va o'z rasmiy veb-saytiga joylashtirib, ularni har chorakda yangilab boradigan ma'lumotlar ro'yxati tasdiqlangan.

Davlat idoralari faoliyati, davlat xizmatchilari tomonidan amalga oshirilayotgan muhim loyihalar haqidagi ma'lumotlarni taqdim etish bilan bir qatorda, jamoatchilik fikrini muntazam ravishda o'rganish va monitoring qilish muhim. Bu esa davlat xizmatchilarining jamoatchilik orasidagi imijini aniqlash, kelgusida jamoatchilik bilan aloqalar jarayonida e'tibor qaratilishi lozim bo'lgan yo'nalishlarni, jihatlarini belgilab olish hamda ko'riladigan chora-tadbirlar natijasida davlat xizmatchilarining imijini oshirishga ko'maklashadi.

Davlat tashkilotlarining axborot xizmatlari qanchalik faol va zamon talablariga muvofiq ishlanmasa, davlat xizmatchilari o'zlarining ongida mavjud muhim mohiyatni anglamaydigan, zarur imijni shakllantirib bo'lmaydi. Buning uchun esa davlat xizmatchilari orasida muntazam ravishda mediasavodxonlik hamda imijologiya kabi yo'nalishlardagi bilim va ko'nikmalarini nafaqat ta'lim muassasalarida, shu bilan birga, shaxsiy rivojlantirish rejalarida oshirib borish taklif etiladi. Bu esa kompleks, har tomonlama o'yilgan hamda ekspertlar fikri asosida ishlab chiqilgan yondashuvni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, jamoatchilik hamda ommaviy axborot vositalari vakillari bilan aloqaga kirishishda har bir davlat fuqarolik xizmatchisi uchun aniq qoidalarni mavjud. Odob-axloq qoidalari davlat xizmatchisida yuksak kasbiy madaniyatni shakllantirish, jamoatchilik ongida davlat xizmatiga bo'lgan hurmat va ishonchni oshirish hamda davlat xizmatchilarining axloq qoidalarga zid bo'lgan xatti-harakatlarining oldini olishga xizmat qiladi.

YANGI O'ZBEKISTON — INSON QADRI ULUG'LANGAN MAMLUKAT



Barchamiz uchun yagona vatan — jonajon O'zbekistonimiz tarixan juda qisqa, olti yarim yillik davrda insonparvar demokratik davlatni barpo etish borasida g'oyat yuksak marralarga erishdi.

Tadbirkorlar va ishbilarmonlar harakati — O'zbekiston Liberal-demokratik partiyasidan O'zbekiston Respublikasi Prezidentligiga nomzod Shavkat Mirziyoyevning Saylovoldi dasturi bosh falsafasi — inson qadri ulug'lash, xalq iradasini, orzu-umidlarini ro'yobga chiqarish. Unda o'tgan yillarda mamlakatda qilingan ishlardan kelib chiqib, keyingi bosqichda amalga oshiriladigan ishlar ko'lami aniq belgilab berilmoqda.

Suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish — strategik vazifamiz

Partiyamizdan nomzodning Saylovoldi dasturidan o'rin olgan beshta strategik yo'nalishdan biri sifatida suv resurslarini tejash va atrof-muhitni muhofaza qilish etib belgilangan.

Ta'kidlash kerakki, oxirgi yillarda suv xo'jaligi obyektlarini modernizatsiya qilish va rivojlantirish, tizimga innovatsion, zamonaviy texnologiyalarni olib kirish, aholini toza ichimlik suvi bilan ta'minlash bo'yicha tizimli islohotlar amalga oshirildi.

Nomzodimiz tashabbusi bilan "O'zbekiston Respublikasi suv xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo'ljallangan konsepsiya"si tasdiqlandi. Manzilli chora-tadbirlarning amalga oshirilishi natijasida birgina 2022-2023-yilning birinchi choragida 1,6 million aholi ilk bor ichimlik suvi bilan ta'minlandi, 3,4 million aholining ichimlik suv ta'minoti yaxshilandi.

Suv tejavchi texnologiyalarni joriy qilish hamda ekin maydonlarida qo'shimcha agrotexnik tadbirlarni amalga oshirish, irrigatsiya obyektlarini qurish va rekonstruksiya qilish, "Aqli suv", suvni "onlayn" nazorat qilish, "Dayver" raqamli quilmalarni o'rnatish kabi vazifalarga alohida e'tibor qarattildi. Sohaga xorijiy investitsiyalarni jalb qilish natijasida 295 kilometr uzunlikdagi kanallar va ulardagi 817 ta gidrotexnik inshootlar rekonstruksiya qilindi.

2019-2022-yillarda paxta maydonlarida suvni tejashga yo'naltirilgan tomchilatib sug'orish texnologiyasini joriy qilgan 5 mingdan ortiq fermerga 138 ming 953 gektar maydonda ushbu texnologiyalarni 1 trilyon 44 milliard so'mdan ortiq subsidiya mablag'larini ajratib berildi.

Yaxshi ma'lumki, mintaqamizning asosiy suv arteriyalari bir necha mamlakatlar hududini kesib o'tgan bo'lib, transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish qo'shni davlatlar bilan bahamjihat, kelishuvda ishlashni talab qiladi.

Ushbu muhim jihatni e'tiborga olgan holda nomzodimiz tashabbusi bilan hozirda transchegaraviy suv resurslaridan foydalanish masalalari bo'yicha davlatlararo munosabatlarni rivojlantirish, Markaziy Osiyo mamlakatlar manfaatlarini o'rtasidagi muvozanatni ta'minlaydigan

mintaqaning transchegaraviy suv resurslarini birgalikda boshqarishning o'zaro maqbul mexanizmlari ishlab chiqilmoqda.

Cheklangan resurs hisoblanmish suvdan samarali foydalanish maqsadida partiyadan nomzodimiz o'z dasturida sug'orishda suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilish ishlarini yanada jadalashtirishni taklif etmoqda. Jumladan, ushbu takliflar qatorida:

- 2030-yilga qadar ekin maydonlarini to'liq suv tejaydigan texnologiyalarga o'tkazish;

- dalalarga suv yetkazadigan obyektlarni fermer va klasterlar boshqaruviga berish, suv yetkazish tizimiga rivojlangan davlatlar tajribasini keng joriy qilish;

- suv tejaydigan texnologiyalarni joriy qilgan fermer va dehqonlarni yanada rag'batlantirish va bunga 10 foizli kredit ajratish, o'z hisobidan joriy qilganlarga esa, xarajatning 50 foizini qoplab berish tartibini joriy etish kabi takliflar o'rin olgan.

Suv resurslaridan oqilona foydalanish ilk bor Saylovoldi dasturida eng muhim yo'nalishlardan biri sifatida o'rtaga qo'yilishi, qolaversa, bu borada mavjud muammolarni ochiq aytilish barobarida, ularni bartaraf etish bo'yicha aniq yechimlarning taklif etilayotganini rejalashtirayotgan islohotlarning xalq uchun, xalq manfaatlarini yo'lida amalga oshirilayotganining yana bir yorqin dalili bo'ldi, desak ayni haqiqatni aytgan bo'lamiz.

Nomzodimiz Saylovoldi dasturida xalqimizni o'yantirgan yana bir muhim muammo — atrof-muhitni muhofaza qilish borasida ham so'z bormoqda.

BMT Bosh kotibi Antoniu Guterrish Shavkat Mirziyoyevning muhim siyosiy-iqtisodiy islohotlarni amalga oshirishi bilan bir qatorda iqlim o'zgarishi, atrof-muhitni muhofaza qilish va mintaqaviy o'zaro bog'liqlik borasidagi xalqaro sa'y-harakatlarga hissa qo'shayotganini alohida e'tirof etdi.

Nomzodimiz tashabbusi bilan BMT Bosh Assambleyasining Orolbo'yini ekologik innovatsiyalar va texnologiyalar hududi sifatida e'lon qilish bo'yicha rezolyutsiyasi, Barqaror rivojlanish maqsadlariga erishishni jadalashtirishda parlamentlarning rolini kuchaytirish to'g'risidagi maxsus rezolyutsiyasi, BMTning Orolbo'yi bo'yicha trast jamg'armasini tashkil etish bo'yicha tarixiy qarori qabul qilindi.

Orolbo'yi hududida global ekologik muammoning oldini olish va aholining ijtimoiy-iqtisodiy yashash tarzini yaxshilashga qaratilgan keng ko'lami chora-tadbirlar amalga oshirildi. Jumladan, 1,8 million gektar maydonda cho'l o'simliklarining urug'i va ko'chatidan "yashil qoplama" himoya o'rmonzorlari barpo etildi. Buning uchun ishchilardimlar va aholi tomonidan saksovul va boshqa cho'l o'simliklarining urug'larini jamg'arildi.

"Yashil makon" umummilliy loyihasi doirasida Qoraqalpog'iston Respublikasi,

66 NOMZODIMIZ TASHABBUSI BILAN "O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI SUV XO'JALIGINI RIVOJLANTIRISHNING 2020-2030-YILLARGA MO'JLALLANGAN KONSEPSIYA"SI TASDIQLANDI. MANZILLI CHORA-TADBIRLARNING AMALGA OSHIRILISHI NATIJASIDA BIRGINA 2022-2023-YILNING BIRINCHI CHORAGIDA 1,6 MILLION AHOI ILK BOR ICHIMLIK SUVI BILAN TA'MINLANDI, 3,4 MILLION AHOI ICHIMLIK SUV TA'MINOTI YAXSHILANDI.

viloyatlar va Toshkent shahrida oxirgi ikki yilda jami 400 million tupdan ziyod manzarali va mevali daraxt ko'chatlari ekildi. Bunda suvsizlik va qurg'oqqilikka mos daraxt turlariga alohida e'tibor qarattildi.

Atrof-muhitni muhofaza qilish sohasidagi quonuchilik bugungi kun talablardan kelib chiqib takomillashtirildi.

Nomzod Saylovoldi dasturida bu sohada 2030-yilgacha bo'lgan davrda quyidagi aniq chora-tadbir va rejalarni amalga oshirish belgilangan:

- "Yashil makon" umummilliy loyihasini yanada kengaytirish;
- yashil maydonlarni ko'paytirish uchun yiliga 400 milliard so'm ajratib borish orqali aholi maskanlari, umuman, mahallalarda ekologik muhitni yaxshilashga erishish;
- davlat idoralari, korxonalar, oliygohlarda ham o'zining yashil bog'larini tashkil qilish;
- yangi uy-joy qurishda pudratchilarga "yashil hudud" va avtoturargoh barpo etishni majburiy talab qilib qo'yish;
- 2030-yilgacha respublikada ko'kalamzorlashtirish darajasini 18 foizdan 30 foizga yetkazish;
- Orolbo'yi mintaqasidagi o'rmonzorlarni kelgusi yetti yilda 2,3 million gektarga yetkazish;
- Toshkent shahrida amal qilayotgan boshqaruv kompaniyalari faoliyatini boshqa hududlarda ham joriy etishga erishish;
- barcha qishloq va shaharlarni qattiq maishiy chiqindilarni to'plash xizmatlari bilan to'liq qamrab olish, ularni qayta ishlashni esa kamida 65 foizga yetkazish;
- muayyan hududga yangi hokim tayinlanganda, o'sha yerda ekologik audit o'tkazish, natijalarini jamoatchilikka e'lon qilib borish amaliyotini yo'lga qo'yish,

buning evaziga hudud aholisi hokim oldiga suv va havo tozaligi, ko'kalamzorlashtirish darajasi bo'yicha aniq masala qo'ya oladigan tizimni yaratish.

Qonun ustuvorligini ta'minlash, xalq xizmatidagi davlat boshqaruvini tashkil etish

Sud-huquq va davlat boshqaruvi sohasida so'nggi olti yarim yillik islohotlarni tahlil qilar ekanmiz, jamiyatimiz hayotida adolat tamoyilini tom ma'noda qaror topirish, odil sudlovga erishish, shuningdek, davlat organlarining xalq dardi bilan yashashni ta'minlash borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirildi.

Shulardan quyidagi muhim o'zgarishlarni keltirish mumkin. Xususan, Inson huquqlari bo'yicha milliy strategiya qabul qilindi va hayotga izchil tatbiq etilmoqda. Majburiy mehnat va bolalar mehnati to'liq bartaraf etildi. O'zbekiston BMTning Inson huquqlari bo'yicha kengashiga a'zo etib saylandi.

Uzoq yillar og'riqli masala bo'lib kelgan "propiska" tizimi tubdan isloh etildi. Fuqaroligi bo'lmagan shaxslarga O'zbekiston fuqaroligini berish, ularning o'z siyosiy huquqlaridan to'liq foydalanishini ta'minlash maqsadida yangi tahrirdagi "O'zbekiston Respublikasining fuqaroligi to'g'risida"gi qonun qabul qilindi. Natijada mamlakat hududida doimiy istiqomat qiladigan, fuqaroligi bo'lmagan 75 mingga yaqin shaxsga O'zbekiston Respublikasi fuqaroligini olish imkoniyati yaratildi.

Sudyalarni tanlash va lavozimlarga tayinlashda noqonuniy aralashuvlarning oldini olish, bu borada ochiq, oshkora va muqobil tanlov tizimini yaratish maqsadida Sudyalar oliy kengashi ta'sis etildi. Fuqarolar va yuridik shaxslarga dav-

lat xizmatlarini to'liq elektron shaklga o'tkazib, davlat boshqaruvida mavjud bo'lgan minglab funksiyalarni bosqichma-bosqich raqamlashtirish;

— fuqarolarning davlat xizmatlaridan foydalanish uchun murojaat qilishda ortiqcha formal tartiblarni bekor qilish, davlat idoralari zarur hujjatlarni elektron bazadan o'zi oladigan tizimni yaratish;

— har bir mahallada elektron xizmat nuqtalari ishga tushirilib, mahallalarni barcha masalalarni "bir qadam" tamoyili asosida hal etadigan maskanga aylantirish;

— davlat tomonidan fuqarolik xizmati tizimini raqamlashtirish ishlarini jadalashtirishga alohida ahamiyat berish;

— hokimlarning Kengashga rahbarlik vakolati bekor qilinishi bilan, ularning Kengash oldida, xalq oldida hisobdor bo'lishini, mas'uliyati va javobgarligi oshirishni ta'minlash;

— hokim va mahalliy Kengashning javobgarlik doirasi va aniq vazifalari belgilangan holda, ular faoliyatida jamoatchilik ishtirok etishi uchun zarur sharoitlarni yaratish;

— mol-mulk va yer soliqlarini mahallada qoldirish;

— kelgusi yillarda "Ochiq budjet"ga beriladigan mablag'ni 3 karra oshirib, 24 trilyon so'mga yetkazish bo'yicha choralar ko'rish;

— mahalla raislarining vakolat muddatini 3 yildan 5 yilga uzaytirish;

— ochiqlik siyosatini izchil davom ettirib, ommaviy axborot vositalari faoliyatini erkinligi, fuqarolarning axborot olish, undan foydalanish va tarqatishga bo'lgan huquqlarini qat'iy kafolatlash;

— nodavlat notijorat tashkilotlarini yanada qo'llab-quvvatlab, ular uchun barcha sharoitlarni yaratish.

Sud-huquq sohasidagi islohotlar izchilligini ta'minlash hamda sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish uchun nomzodimiz dasturida quyidagi ustuvor vazifalar belgilangan:

- tergovda shaxs huquqini cheklashga sanksiya berish masalasi alohida sudyalari tomonidan ko'rib chiqilishi amaliyotini yo'lga qo'yish;

- odamlarni "qamoqqa olib tergov qilish" amaliyotini kamaytirish, buning o'rni garov ehtiyoj chorasidan keng foydalanish imkoniyatini yaratish;

- qamoqdagi shaxslardan olingan "aybni bo'yniga olish" haqidagi ariza dalil sifatida qabul qilinmasligini ta'minlash;

- jabrlanuvchining iltimosiga asosan, jinoyat ishini qo'zg'atmasdan ham yarashish imkoniyatini yaratish;

- jinoyat sodir qilgan shaxslar kelgusida tuzalish yo'lga o'tishi uchun muqobil jazo va boshqa huquqiy ta'sir choralarini kengaytirish;

- soliqqa oid jinoyatlar bo'yicha tadbirkor sud hukmi chiqqungacha qadar zararini qoplash, javobgarlikdan ozod etish tartibini joriy etish;

- tergov-sud jarayonida tadbirkorni himoya qilishga Biznes ombudsman va Savdo-sanoat palatasini jalb etishga oid yangi tartibni o'rnatish.

Yangi O'zbekiston — xavfsiz va tinchliksevar davlat

Yangilangan Konstitutsiyada O'zbekiston Respublikasi davlatlar va xalqaro tashkilotlar bilan ikki va ko'p tomonlama munosabatlarni har taraflama rivojlantirishga qaratilgan tinchliksevar tashqi siyosatni amalga oshirishi belgilangan.

O'tgan yillarda Shavkat Mirziyoyev rahbarligida chuqur o'ylangan va konstruktiv tashqi siyosat yuritish, xorijiy davlatlar bilan do'stona va o'zaro manfaatli munosabatlarni rivojlantirish borasida salmoqli natijalarga erishildi. Xalqaro hamjamiyat nigohida mamlakatimizning qiyofasi tubdan o'zgardi, Yangi O'zbekiston dunyoga ochildi.

Markaziy Osiyo davlatlari bilan tashqi savdo aylanmasi hajmi ikki barobardan ziyodga o'sdi, qo'shnilarimiz bilan o'ramidagi 25 yillik "muz eridi". Natijada kuniga 30 ming odam hech qanday to'siqsiz chegarani kesib o'tish imkoniyatiga ega bo'ldi.

Tashqi siyosat sohasida nomzodimiz dasturiga quyidagi keng ko'lami vazifalar kiritilgan. Jumladan,

— Yangi O'zbekiston tashqi siyosatini faqat xalqimiz va davlatimizning milliy manfaatlaridan kelib chiqqan holda olib borish;

— O'zbekistonning siyosiy, savdo-iqtisodiy va madaniy-gumanitar sohalardagi tashabbuslarini xalqaro maydonda faol ilgari surish;

— qo'shni davlatlar bilan yaxshi qo'shnilik va strategik sheriklik munosabatlarni jadal rivojlantirish;

— Markaziy Osiyoda turli yo'nalishlar, ayniqsa, suv resurslaridan oqilona foydalanish, transport yo'laklarini rivojlantirish borasidagi amaliy hamkorlikni sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish;

— xorijdagi vatandoshlarni qo'llab-quvvatlab, ularning yurtimiz taraqqiyotida faol ishtirok etishi uchun zarur shart-sharoitlar yaratib berish;

— xorijdagi vatandoshlarimiz orasida ona tili, milliy madaniyat va an'analarni targ'ib etish bo'yicha tizimli choralar ko'rish;

— vatandoshlarimizga dunyoning istalgan nuqtasidan mamlakatimizdagi davlat xizmatlaridan masofadan turib foydalanish imkoniyatini yaratish;

— tashqi mehnat migratsiyasi tizimini to'liq isloh qilib, xorijga ishlash uchun borayotgan aholini kasbga va chet turlariga o'qitish ko'laminii kengaytirish;

— xorijda ishlash istagidagi yurtdoshlarimiz Yevropa va Osiyoning yuqori haq to'lanadigan mamlakatlariga ishg borishi uchun davlat tomonidan ko'mak berish tartibini joriy etish;

— murakkab vaziyatga tushib qolgan yurtdoshlarimizga huquqiy va boshqa yordamlar ko'rsatish ko'laminii kengaytirish;

— mehnat migrantlari va ularning oila a'zolari davlatimiz doimiy g'amxo'rligida bo'lishi, ularning farzandlari o'qishi va oliyog'larga kirishida ham yengilliklar berish bo'yicha choralar ko'rish.

Xavfsizlikni ta'minlash masalasida ham O'zbekistonning davlat mustaqilligi, uning sarhadlari daxlsizligi va hududiy yaxlitligini yanada mustahkamlash bosh maqsad qilib qo'yilmoqda.

Oxirgi yillarda mazkur sohada amalga oshirilgan islohotlar natijasida O'zbekistonning mudofaa salohiyati mustahkamlanib, Qurolli Kuchlarning jangovar tarkibi va shayliyi takomillashtirildi. Harbiy xizmatchilarni ijtimoiy qo'llab-quvvatlash maqsadida so'nggi bir yilning o'zida 3 mingdan ortiq harbiy uy-joy bilan ta'minlandi.

Shu bilan birga, nomzodimiz dasturida bu borada keyingi yetti yilda quyidagi chora-tadbir va rejalarni amalga oshirish belgilangan:

- Qurolli Kuchlarimizning qudrati, mudofaa qobiliyatimiz va harbiy salohiyatimizni yanada oshirish maqsadida milliy armiyamizni 2030-yilga qadar eng zamonaviy qurol-aslaha va harbiy texnika bilan ta'minlash;

- harbiy-jangovar qudrat va yuksak ma'naviy salohiyatni O'zbekiston Qurolli Kuchlarining ikki buyuk tayanchiga aylantirish;

- yosh avlodni Vatanga muhabbat va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlariga hurmat g'oyasi atrofida birlashtirish bo'yicha alohida dastur asosida ish olib borish;

- davlatimiz ramzlari, xususan, bayrog'imiz xonadonlarda ham hilpirab turishi uchun zarur huquqiy asoslar yaratish, uni milliy g'ururimiz timsoliga aylantirish.

Biz yurtdoshlarimiz, saylovchilarni ham Yangi O'zbekistonni birgalikda qurishga da'vat etamiz. Zero, Yangi O'zbekiston orzusini amalga oshirishda eng katta tayanchimiz, bu — xalq. Eng ezgu niyatimiz xalqimizni baxtli va farovon ko'rishdir.

Nomzodimiz Shavkat Mirziyoyev uchun ovoz berishga chaqiramiz!

Barno MIRZAMOVA, Baxitbay ALDAMURATOV, Zafar XUDAYBERDIYEV, Oliy Majlis Qonunchilik palatasi deputatlari, O'ZLIDeP fraksiyasi a'zolari



MUQOBIL ENERGETIKA

ANDIJONDA IXCHAM GESLAR ISH BOSHLAGI

Bugungi kunda kichik oqimdagi suvlardan unumli foydalanish orqali toza va arzon elektr energiyasi ishlab chiqarishga bo'lgan talab oshib bormoqda. Ushbu jarayonda xususiy sektor vakillari — tadbirkorlar ham ishtirok etyapti.



Ravshan BOYQULOV, "O'zbekgidroenergo" AJ axborot xizmati rahbari

Ayni yo'nalishda yangi istiqbolli loyihalarni amalga oshirish hisobiga yurtimiz gidroenergetika salohiyati yanada ortadi va arzon elektr energiyasi manbaini ishlab chiqarish keskin oshiriladi. Shu maqsadda "O'zbekgidroenergo" AJ tomonidan respublika bo'yicha umumiy quvvati 125 megavatt, o'rta va kichik quvvatli ishlab chiqarish 675 million kilovatt-soat bo'lgan 250 ta mikro GES loyihalarning manzilli ro'yxati shakllantirildi.

Ma'lumki, gidroturbinalar tez oqim tufayli quvvat hosil qiladi. Suv qancha tez oqsa, u ham shuncha ko'proq elektr quvvati ishlab chiqaradi, qurilish jarayonida va foydalanish davrida tabiiy landshaft

shunday fikr aytish mumkin. Quvvati 50 kilovatt, yillik ishlab chiqarish quvvati esa 360 ming kilovatt-soatni tashkil etgan mazkur mikro GES 150 ta xonadonni uzluksiz elektr energiyasi bilan ta'minlash imkoniyatiga ega. Ushbu GES uchun charxpalak tipidagi agregatlar "Suv sanoat mash" AJda milliy brend asosida ishlab chiqarilgan.

Shuni alohida qayd etish joizki, birgina Andijon viloyatida aniqlangan dastlabki ro'yxatga ko'ra, umumiy quvvati 19 megavatt dan iborat 52 ta mikro GES qurish rejalashtirilgan. Shundan, joriy yilda umumiy quvvati 2 ming 130 kilovattli 7 ta qayta tiklanuvchi energiya manbalari, xususan, suv bosimida ishlovchi 3 ta mikro GES, 2 ta suv yuzida suzib turuvchi kinetik gidroagregat hamda 2 ta charxpalak turidagi loyihaning ishga tushirilishi ko'zda tutilgan.

Eng muhimi, mazkur loyihalarni amalga oshirish hisobiga mahalliy hududda uzluksiz elektr energiyasi ta'minotiga ega bo'lish bilan birga, salkam 40 ta muqim yangi ish o'rni yaratiladi.

Qurilish-montaj ishlari tender savdolari orqali aniqlangan mahalliy pudrat tashkiloti tomonidan 45 kunda amalga oshirildi. Bundan tashqari, 2023-2024-yillarda Andijon viloyatida quvvati 6,9 megavatt, o'rta va kichik quvvatli ishlab chiqarish quvvati 33 million kilovatt-soatga teng "Janubiy Farg'ona kanalida JFK-3 GES qurilishi" loyihasi amalga oshirilishi belgilangan. Ushbu loyihani ishga tushirish orqali kelgusida Buloqboyni tumanidagi 14 ming xonadonni ekologik toza energi-

Boshlanishi 1-betda

— Elektr energiyasiga oyiga 50-60 ming so'mdan to'layotgandik. Quyosh paneli o'rnatganimizdan so'ng shu mablag' tejalib, aksincha, ortiqcha elektr energiyasi uchun bizga pul ham to'lay boshlashdi, — deydi Salomat aya.

Ha, bugun yurtimizda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini keng joriy etish bo'yicha hududlarda ulkan ishlar amalga oshirilayotir. Jumladan, Karmana tumanida loyiha qiymati 110 million AQSH dollari, quvvati 100 megavatt quyosh fotoelektr stansiyasi qurilgani O'zbekiston energetika tizimidagi birinchi ulkan qadam bo'ldi. 2022-yilda Nurobod tumanida xuddi shunday quyosh stansiyasi ishga tushirildi. Joriy yil yakuniga qadar Navoiy viloyatida 500 MVtli shamol hamda Navoiy, Samarqand, Jizzax, Surxondaryo, Qashqadaryo, Buxoro, Farg'ona va Toshkent viloyatlarida umumiy quvvati 3 647 MVtli quyosh fotoelektr stansiyalari qurilishi belgilangan.

Prezidentning joriy yil 17-fevraldagi "2023-yilda qayta tiklanuvchi energiya manbalarini va energiya tejoychi texnologiyalarni joriy etishni jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori

asosida 1-apreldan boshlab respublika hududlarida aholi xonadonlariga kichik quvvatli quyosh panellari o'rnatishni rag'batlantirish bo'yicha "Quyoshli xonadon" dasturi amalga oshirilmoqda. 2023-yilda 37 ming aholi xonadonida kichik quvvatli qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatish rejalashtirilgan. Dastur doirasida jismoniy shaxslarga tegishli obyektlarda o'rnatilgan quyosh panellarida ishlab chiqarilgan va o'z iste'molidan o'ttirib yagona elektr energetika tizimiga uzatilgan elektr energiyasining har bir kilovatt-soatiga davlat byudjetidan 1000 so'm to'lanishi nazarda tutilgan. Shu bilan birga, hujjatda 2023-yilda foydalanishga topshiriladigan 765 ta ko'p qavatli uy qayta tiklanuvchi energiya manbalari bilan ta'minlash rejalashtirilgan. 1-maydan boshlab esa foydalanishga topshiriladigan ko'p qavatli uylar tomlari bo'sh qismining kamida 50 foizida quyosh panellarini o'rnatish joriy etildi.

Navoiy viloyatining Karmana tumanida ham dastur doirasida aholi xonadonlarini quyosh panellari yordamida elektr energiyasi bilan ta'minlash ishlari boshlab yubirildi. Tumaning Ziyokor mahallasidagi 15 ga yaqin xonadonda allaqachon quyosh panellari o'rnatilib, o'tgan qisqa fursat ichida aholi vakillari uning samaradorligi-

ga amin bo'lmoqda. Do'stlik mahallasida yashovchi Anvar Inoyatov ham xonadoniga quyosh panellarini birinчилardan bo'lib o'rnatgan hamyurtlarimizdan. Energetika sohasida faoliyat yuritib kelayotgani bois, "Quyoshli xonadon" dasturining foydasi to'la ishgona holda kelajakda muqobil energiya manbaidan foydalanish orqali qo'shimcha daromad topishni ham maqsad qilmoqda.

— Uyimizga quyosh panellarini yaqinda imtiyozli kredit hisobiga o'rnatdik. Elektr energiyasi sarfi teng yarmiga qisqardi. Aholi uchun quylaylik jihatlari juda ko'p. Ayni vaqtda elektr energiyasining qolgan qismini sotishni rejalashtiryapmiz. Bu borada mutaxassislar bizga barcha amaliy ko'mak bermoqda, — deydi Anvar Inoyatov.

O'zaro shartnomaga ko'ra, aholi xonadonlarida ishlab chiqarilgan elektr quvvati hududiy elektr ta'minoti korxonasi tomonidan kafolatlangan tarzda sotib olinmoqda.

— Ushbu tizimning foydali ekani quyosh paneli o'rnatilgan xonadon misolida aniq ko'rinadi. 2 oy avval 2 KVtli uskuna qo'yilgan xonadon 40-50 ming so'mlik elektr energiyasi iste'mol qilgan bo'lsa, hozir quyosh paneli 200-250 ming so'mlik elektr energiyasi ishlab chiqarmoqda. Xonadon egasi iste'moldan ortgan elektr

energiyasini davlatga sotmoqda, — deydi "Hududiy elektr tarmoqlari" aksiyadorlik jamiyati Navoiy filiali bo'lim boshlig'i Husniddin Xo'jayev.

Joriy yilda Navoiy viloyatida quvvati 77,2 MVt bo'lgan quyosh panellarini o'rnatish rejalashtirilgan bo'lib, hozir 345 ta ijtimoiy soha obyekti, 420 ta tadbirkorlik subyekti va 716 ta aholi xonadoniga quvvati 12,6 MVt quyosh panellari o'rnatilgan. Obyektlar soniga nisbatan olinganda, umumiy rejaning 80 foizi to'liq bajarilganini ko'rish mumkin.

Yuqoridagi qarorga ko'ra, 2023-yil 1-apreldan boshlab qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini o'rnatgan jismoniy va yuridik shaxslarga mol-mulk solig'i, yer solig'i hamda yuridik shaxslar tomonidan umumiy tarmoqqa sotgan elektr energiyasi uchun olgan foydasidan hisoblanadigan foyda solig'ini to'lashdan ozod etilishi bo'yicha imtiyozlar berilgan. Shuningdek, 1-martdan boshlab yagona elektr energetika tizimiga ulanish uchun berilgan texnik shartlarda ko'rsatilgan quvvatdan yuqori bo'lmagan qayta tiklanuvchi energiya manbalari qurilmalarini elektr tarmoqlariga ulashda qo'shimcha texnik shart olish talab etilmaydi.

G'olib ABDUSALOMOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

IJTIMOIY HIMOYA

BUGUNGI KUNIDAN rozi odamlar

Yurtimizda har sohada ulkan o'zgarish va yangilanishlar bo'y davlatimiz tomonidan yaratib berilayotgan imkoniyatlar ularning ko'ngliga halovat va xotirjamlik hissini berayotir. Qayta tiklanuvchi energiya ishlab chiqarishda yangi quvvatlarni o'zlashtirish, quyosh panellari uchun uskunalar mahalliyashtirish borasida hududlarda amalga oshirilayotgan ishlardan aholi juda mamnun.

— Xonadonimizning elektr energiyasi pulini qo'limiz katta qilib, o'z vaqtida to'lay olmagan kunlarimiz ko'p bo'lgan. O'sha damlarda endi chirog'imizni o'chirib ketadi, qorong'uda yurak hovuchlab necha kun o'tiraman, degan notinch xayollar bilan necha yillar bedor yashadik. Qishloq sharoitida chiroq o'chsa, hayot tugab qolganay bo'ldi. Qorong'uda xira chiroq yoki sham yorug'ida ilojisiz o'tgan kunlarimiz bugun ertakka aylandi. Eng muhimi, qarzdorlik sabab endi elektr simlarimiz tarmoqdan uzilmaydi. Elektr energiyasiga sarflanadigan mablag'imiz ham tejaladi, chunki uyimiz tomiga quyosh paneli o'rnatib berishdi, — deydi Qorako'l tumanidagi Zarafshon mahallasida yashovchi Rajavoy Yangiyeva.

Buxoro viloyatining Olot tumanidagi "Xalifa" mahalla fuqarolar yig'inida istiqomat qiluvchi Tolib Xudoynazarov ham yillar davomida boshidan kechirgan nochor hayoti tashvishlarini eslar ekan, bugungi yorug' kunlar uchun mutasaddilarga alohida minnatdorlik bildirdi:

— Endi uyimizga beminnat nur kirib keldi. Bizday oddiy odamlarni o'ylaganlarning biriga ming bersin. Elektr toki o'chganida nima qilishni, farzandlarimga nima deyishni bilmay, boshim egilib qolaradi. Xuddi bir gunoh ish qilganday. Yetarli mablag'imiz bo'lmagani bois, elektr pulini vaqtida to'lay olmasdik. Montyorlar "Katta qarzingiz bor ekan, o'chirishga majburmiz" deb, simlarimizni uzib ketardi. "Ey baraka topgur, o'chirma, besh kattalar-ku mayli, shu bolalarga rahmning kelsin, bir iloj qilib, pul topib erta-indin to'larmiz", deya javrab qolaverardik. Xudoga shukr, u kunlar ortda qoldi.

"SO'NGGI YILLARDAGI ISLOHOTLAR TUFAYLI "TEMIR DAFTAR" RO'YXATIDA TURUVCHI FUQAROLAR XONADONLARIGA QUYOSH PANELLARI O'RNATIB BERISH MAMLAKAT BO'YLAB KENG QAMROVLI DOLZARB VAZIFAGA AYLANMOQDA. O'RNATILAYOTGAN QUYOSH PANELLARI XONADONLARDA KUZATILISHI MUMKIN BO'LGAN ELEKTR UZILISHLARINING TO'LA OLDINI OLADI.

Darhaqiqat, quyosh panellari va qayta tiklanuvchi muqobil energiya, quyosh suv isitish vositalaridan foydalanish bugungi kunda eng samarali usul bo'lib, elektr uzilishlarining oldini olish bilan birga, mablag'larni tejash hamda turli yo'nalishlarda zamonaviy innovatsion g'oyalarni tatbiq etishga imkon yaratadi.

— Dunyo bo'yicha tabiiy zaxiralar kamayib, talab tobora oshib borayotgan bugungi kunda taraqqiyotni maqsad qilgan har qanday davlat uchun yashil energiyani hayotga keng tatbiq etish samarali va sifati yo'li hisoblanadi, — deydi "Mahalla" xayriya jamoat fondi Buxoro

kollektorlari o'rnatib berildi. Jumladan, 120 ta oilaga quvvati 1 kilovatt dan kam bo'lmagan quyosh panellari, 85 ta oilaga sig'imi 100 litrdan kam bo'lmagan quyosh isitish kollektori o'rnatildi. Bu ishlar ayni vaqtda ham qizg'in davom ettirilmoqda. Xonadonlarga o'rnatilgan quyosh panellari soatiga 1 kilovatt elektr energiyasi ishlab chiqarish imkoniyatiga ega. Bu esa xonadondagi 10 ta 12 vatt quvvatli LED lampa, shuningdek, muzlatkich va televizorni 24 soat davomida umumiy elektr tarmog'idan hech qanday elektr energiyasini olmay turib ishlash imkonini beradi. Albatta, amalga oshirilayotgan bu ishlar kelgusida qayta tiklanmaydigan resurslardan oqilona foydalanish, yashil energiyani hayotimizga keng tatbiq etish, shu bilan birga, ijtimoiy himoyaga muhtoj aholi qatlami uchun muhim ahamiyatga ega vosita hisoblanadi.

Ha, so'nggi yillardagi islohotlar tufayli "Temir daftar" ro'yxatida turuvchi fuqarolar xonadonlariga quyosh panellari

o'rnatib berish mamlakat bo'ylab keng qamrovli dolzarb vazifaga aylanmoqda. O'rnatilayotgan quyosh panellari xonadonlarda kuzatilishi mumkin bo'lgan elektr uzilishlarining to'la oldini oladi.

Ayni damda Buxoro viloyatining boshqa tuman va shaharlarida yashovchi ehtiyojmand oilalarga quyosh panellari o'rnatib berish qizg'in davom etyapti. Bu o'ls va checka hududlarda istiqomat qilayotgan ijtimoiy ko'makka muhtoj oilalar uchun kutilmagan tuhfa bo'lyapti. Ushbu xayriya va maqsadli ishlar "Mahalla" xayriya jamoat fondi Buxoro viloyati bo'limi huzuridagi "Saxovat va ko'mak" jamg'armasining 6,5 milliard so'mlik mablag'i hisobidan amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda viloyatning barcha shahar va tumanlarida "Temir daftar" da ro'yxatda turgan xonadonlarga quyosh panellari o'rnatish ishlari jadal olib borilmoqda.

Gulichehra DURDIYEVA, "Yangi O'zbekiston" muxbiri



va atrof-muhitni buzmaydi. Suv sifatiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydi, u asl tabiiy xususiyatini yo'qotmaydi. Ixcham GESlar har jihatdan foydali va nisbatan arzon elektr energiyasi ishlab chiqarishda qo'l keladi.

O'tgan hafta oxirida Andijon tumanining Zavroq mahallasidan o'tgan kanalning birinchi piketida quvvati 200 kilovatt, yillik ishlab chiqarish quvvati 1,2 million kilovatt-soat bo'lgan mikro GES ishga tushirildi. E'tibori jihat, ushbu loyiha Andijon tumanidagi 300 ta xonadonni ekologik toza elektr energiyasi bilan ta'minlash imkonini beradi.

Loyihaning umumiy qiymati 3,4 milliard so'm, xususan, asbob-uskunalar 1,9 milliard so'm, qurilish-montaj ishlari 1,5 milliard so'mni tashkil etdi. Loyihaning o'zini iqtisodiy jihatdan qoplash muddati 4,4 yil bo'lishi prognoz qilinmoqda.

Ahamiyatli jihat, loyihalashtirish, qurilish hamda uskunalar o'rnatish ishlari nisbatan qisqa vaqt oralig'ida, ya'ni 2 oyda amalga oshirilishiga muvaffaq bo'ldi. Bu vazifa "O'zbekgidroenergo" AJ tarkibidagi "Gidroyekt" AJ tomonidan 10 kun muddatda ishlab chiqilgan bo'lsa, loyiha agregatlari "Suv sanoat mash" AJ ishlab chiqarish negizida, sanoat kooperatsiyasi asosida xitoylik hamkorlar bilan birgalikda bir oyda tayyorlab berildi.

Oltinko'l tumanidagi Ulug'nor kanalida qurilgan ixcham GES haqida ham





YOSHLARGA OID DAVLAT SIYOSATI — AMALDA

NAVQIRON AVLOD VAKILLARI

kelajagimiz tayanchi, ertangi kunimizning hal qiluvchi kuchi



Dilnozaxon KATTAXONOVA, Yoshlar ishlari agentligi direktori o‘rinbosari, siyosiy fanlar bo‘yicha falsafa doktori (PhD)

Boshlanishi 1-betda

Sohadagi vaziyat va amalga oshirilgan tadbirlar tahlili yoshlarning keng qatlamiga daxldor bo‘lgan dolzarb masalalar, hayotda o‘z o‘rnini topishi uchun munosib sharoit yaratish, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash, kasbga yo‘naltirish va bandligini ta‘minlash, tashabbuslarini rag‘batlantirish borasidagi ishlar o‘z samarasini berayotganini ko‘rsatmoqda.

Joylarda, avvalambor, chekka hududlarda istiqomat qilayotgan ko‘p sonli yoshlarning o‘z iqtidor va iste‘dodini ro‘yobga chiqarishi, tadbirkorlik faoliyati bilan shug‘ullanishi uchun keng sharoit yaratish, ularni turli zararli illat va yot g‘oyalar ta‘siridan himoya qilish, yoshlar o‘rtasida huquqbuzarliklarning barvaqt oldini olish kabi muhim vazifalar hal etilmoqda.

Mamlakatimizda 30-iyun — “Yoshlar kuni” munosabati bilan, joriy yilning iyun



oyi “Yoshlar oyligi” deb e‘lon qilindi. Respublikaning barcha hududlarida “Yangi O‘zbekiston yoshlari, birlashaylik!” shiori ostida yoshlar festivali va ma‘naviy-ma‘rifiy tadbirlar o‘tkazilmoqda.

Xususan, 3-10-iyun “Harbiy-vatanparvarlik”, 12-17-iyun “Intellektual o‘yinlar”, 19-24-iyun “Sport-salomatlilik”, 26-30-iyun kunlari esa “Madaniyat, san‘at va turizm” haftaliklari etib belgilab olindi.

Bugungi kunga qadar mahalla va tuman (shahar)larda jami 13 406 ta tadbir, loyiha, ommaviy yoshlar sayillari va gala-konsertlar o‘tkazilib, 2,4 million nafardan ortiq yoshlar qamrab olindi.

Jumladan, oylikning “Intellektual o‘yinlar” haftaligidagi mahalla-sektor-tuman kesimida 6278 marotaba turli loyiha, tanlov va musobaqalar tashkil etildi.

tashkil etiladi. Jumladan, 20-23-iyunda Sirdaryo, 21-24-iyunda Namangan, 22-23-iyun kunlari Andijon viloyatlarida o‘tkaziladi.

Barcha islohotlar yosh avlodning bilimiy, kasb-hunar, hur fikrli bo‘lib voyaga yetishi, munosib daromad topishida barcha zarur sharoit va imkoniyatlardan foydalanishi uchun amalga oshirilmoqda. O‘zbekistonning yoshlar bilan ishlash borasidagi tajribasi xorijiy mamlakatlarning yoshlar tashkilotlari va ekspertlarining e‘tirofiga sazovor bo‘lib kelmoqda. O‘zbekiston yoshlar mamlakat sifatida xalqaro maydonga chiqmoqda. Bu imkoniyatlarni yuksak qadrlash va ulardan samarali foydalanish, mamlakatimiz taraqqiyotiga bilim va mehnatimiz bilan hissa qo‘shish barchamizning farzandlik burchimizdir.



YANGICHA YONDASHUVLAR

FINLYANDIYA TAJRIBASI:

UZLUKSIZ TA'LIM MUVAFFAQIYATI

o‘qituvchilar tayyorlash tizimiga bog‘liq

Odil QO‘YSINOV, Xalqaro Nordik universiteti prorektori, pedagogika fanlari doktori, professor

Feruza HAMROYEVA, O‘zbekiston-Finlyandiya pedagogika instituti dotsenti

Boshlanishi 1-betda

Chunki muallim ilmiy, ma‘rifatli yigit-qizlarni tarbiyalash, o‘quvchilarni turli sohalariga yo‘naltirish, uzluksiz ta‘lim jarayonidagi islohotlarni ro‘yobga chiqarish, bilimiy va malakali yangi avlod kadrlarini yetishtirish, xorijdagi ilg‘or tajribalarni chuqur o‘rganish, o‘qitish metodikasi, shakl va metodlarini qo‘llashga mas‘ul shaxsdir. Shu bois, o‘qituvchilarni tayyorlash bo‘yicha jahon tajribasini o‘rganish, xalqaro ta‘lim tizimidagi ilg‘or islohotlarni tahlil etish dolzarbdur. Ayni paytda dunyo mamlakatlari pedagoglari e‘tiborida o‘qitish tajribasi Finlyandiya ta‘lim tizimida mujassam. Zero, o‘n yildan ortiq vaqt davomida bu davlatdagi 15 yoshli o‘quvchilar PISA xalqaro baholash dasturida muntazam eng yaxshi natijalarni ko‘rsatmoqda.

Finlyandiyaning muvaffaqiyati o‘qituvchilardir. Yuqori sifatli mashg‘ulot o‘tkazishi uchun ularning maqomi va mustaqilligi ta‘minlangan. Ta‘lim siyosati maqsadli ravishda tenglikka yo‘naltirilgan. Shuningdek, maktablar ustidan nazorat markazlashmagani ham asosiy omildir.

Hozir Finlyandiya yigirmata universitet (shundan o‘ntasi pedagoglar tayyorlaydi) hukumat tomonidan moliyalashtiriladi. O‘quv dasturlarini tuzish huquqi va mas‘uliyati mahalliy municipalitetlar va maktablar zimmasida. Qonunchilikka ko‘ra, ta‘lim beruvchilar o‘quv dasturini mahalliy sog‘liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar mas‘uliyati yuklangan idoralar bilan hamkorlikda “maktabning ish muhiti, mahalliy qiyamat tanlovi va maxsus resurslar”ni hisobga olgan holda ishlab chiqishi shart. U nafaqat umumiy ta‘limning yuqori standartlari, balki butun jamiyatning birgalikda belgilangan maqsad va tartiblariga sodiqligini ta‘minlaydigan tarzda amalga oshiriladi.

Finlyandiya o‘qituvchilar uchun ta‘lim dasturini shakllantirish muhim omil. O‘qitish tizimining yana bir muhim xususiyati ishonch va hamkorlik madaniyatiga tayanadi. Mamlakat maktablaridagi o‘qituvchilarni ma‘lumoti va ixtisosligi bo‘yicha maktabgacha ta‘lim o‘qituvchisi, hunarmandlik va texnologiya fani o‘qituvchisi, musiqa o‘qituvchisi kabi toifalarga bo‘lish mumkin. Biroq har bir toifadagi muallimlar turli o‘quv dasturlari asosida tayyorlanadi.

1970-yilda “O‘qituvchilar ta‘limi to‘g‘risida”gi qonun qabul qilinishi bilan Finlyandiya o‘qitish tizimi muvaffaqiyatida asosiy o‘rin egallagan muhim islohot amalga oshirildi. Yangi tashkil etilgan umumta‘lim maktablari uchun ham, o‘rta maktablar uchun ham o‘qituvchilar tayyorlash oliy o‘quv yurtlariga topshirildi. Aksar universitetlar ikki bo‘limga bo‘lingan: umumiy ilmiy va fan sohasidagi ta‘lim hamda pedagogik ta‘lim yo‘nalishlari. Birinchisida umumiy ilmiy va fan-ta‘lim sohasida tadqiqot o‘tkazish va rejalashtirishdagi muammolarni ustida ishlash asosiy yo‘nalish sifatida belgilangan. Ikkinchisida esa pedagogika ta‘limiga, ya‘ni o‘qitish va o‘qituvchilar ta‘limi sohasidagi tadqiqotlarga e‘tibor qaratildi.

Bugun Finlyandiya o‘qituvchilar ta‘limi kuchli tadqiqotga yo‘naltirilgan va hamkorlik mavjudligini ko‘rish mumkin. 1979-yilda o‘tkazilgan keyingi islohotdan so‘ng umumta‘lim maktablari va o‘rta maktab o‘qituvchilari uchun zarur bo‘lgan minimal malaka



taxminan besh yillik o‘quv va amaliy ishlarni talab qiladigan magistr darajasi sifatida belgilandi. Bu uch asosiy maqsadga xizmat qildi: birinchisi, boshlang‘ich va o‘rta maktab ta‘limini birlashtirib, ularning ikkalasiga ham “umumiy o‘zak” berdi; ikkinchisi, boshlang‘ich darajadagi o‘qituvchilar yuqori akademik standartlarga javob beradigan bo‘ldi; uchinchi, yuqori hamda o‘rta maktab o‘qituvchilari ham pedagogika fanlari bo‘yicha tayyorlandi.

O‘qituvchilar uchun o‘quv dasturining bir necha tamoyillari mavjud. Mustaqillik, mas‘uliyat va ishonch. Finlyandiya pedagogik ta‘limi zaminida “barcha darajadagi o‘qituvchilar nafaqat mustaqil mutaxassis, balki sohasi bo‘yicha professional bo‘lishi kerak”, degan ishonch yotadi. Shu bois, turli muammolar (pedagogik, ma‘muriy, oila yoki jamoa bilan bog‘liq, hatto mahalliy sanoat bilan aloqalar) mustaqil bilan hamkorlikda yechiladi.

O‘qituvchida bu fazilatlarining rivojlanishi, bir tomondan, pedagogikni Finlyandiya eng ko‘p talab qilinadigan va nufuzli kasblardan biriga aylantirgan bo‘lsa, ikkinchi tomondan, ma‘murlar va siyosatchilarga o‘quv dasturlarini ishlab chiqish va o‘quvchilarni baholash vazifalarini muallimlarga deyarli to‘liq topshirish imkonini beradigan ishonchni paydo qildi. O‘qituvchilar va maktab direktorlari o‘quv dasturlarini ishlab chiqishda asosiy rol o‘ynaydi. Pedagogik ta‘lim ularga o‘quv dasturi bo‘yicha yaxshi rivojlangan bilim va rejalashtirish ko‘nikmalarini beradi. Bundan tashqari, o‘quv dasturlarini loyihalash kasbiy rivojlanishni tizimiy, nazariy jihatdan takomillashtirishga yordam beradi.

Mustaqillik mas‘uliyat va ishonch tamoyili bilan bog‘liq bo‘lib, ushbu tamoyil ortida turgan ikkita asosiy maqsadni ajratib ko‘rsatish muhim. Birinchisi, bo‘lg‘usi o‘qituvchilarga sohasidagi so‘nggi tadqiqotlardan xabardor bo‘lish, shuningdek, yangi bilimlarni qo‘shish imkonini beradi. Ikkinchisi, amaliyot haqida fikr yurit

oladigan o‘qituvchilarni rivojlantirishni nazarda tutadi. Bo‘lg‘usi fan o‘qituvchilari uchun tadqiqotga asoslangan pedagogik ta‘limning maqsadi “O‘qituvchilarga mustaqil fikrlash va mantiqiy dalillar orqali amalda duch kelishi mumkin bo‘lgan muammolarni hal qilishga ko‘maklashishdir”.

Talabalar odatda qiziqishi yuqori bo‘lgan universitetlarga hujjat topshiradi. Agar 2-kursda belgilangan mezonlarga javob bersa, ularga pedagogik ta‘lim yo‘nalishlarida o‘qish taklif etiladi. Buni tanlaganlar 3-kursdan pedagogika fanidan bitta kursni va boshqa maktab fanlaridan kamida bit-tasini tanlab o‘qiy boshlaydi. Buning natijasida ko‘pchilik fan o‘qituvchilari odatda kamida ikkita fandan dars berishi mumkin.

Finlyandiya va O‘zbekistondagi o‘qituvchilar ta‘limini qisqacha qiyo-siy tahlil qilsak, qator farqlarni ko‘rish mumkin. Masalan, Finlyandiya-dagi maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (bog‘chalar)da ishlab chiqilgan bakalavriat darajasi talab etiladi. Maktabda sinf o‘qituvchisi bo‘lib ishlab chiqilgan pedagogika universitetining magistratura bo‘limini tugatgan bo‘l-shi shart. OTMni tugatgan talaba o‘quv muassasalarida dars berish huquqiga ega emas. Mamlakatimiz maktablarida o‘qituvchilik qilayotgan kadrlarning aksariyati bakalavriat darajasiga ega. Maktabgacha ta‘lim tashkilotlari (bog‘chalar)da esa o‘rta maxsus ma‘lumotga ega kadrlar ko‘p. Shuningdek, OTMni bitirmaganlarning ham maktablarda dars berishiga rux-sat etilgan.

Finlyandiya ta‘lim tizimi kuchli ishonch va ochiqlik asosiga qurilgan. O‘qituvchilar ta‘lim sifati va samaradorligiga mas‘ul etib belgilanadi va ularga ishonch bildiriladi, faoliyati nazorat qilinmaydi. Bizda o‘qituvchi-ning ta‘lim berishdagi faoliyati, dars si-fati va samaradorligi doimiy nazoratga olingan. Ta‘lim muassasalari rahbar-lari tomonidan olib boriladigan dars tahlillari o‘qituvchi faoliyatini nazorat qilishga asoslangan. Finlyandiya

o‘qituvchilar faoliyati ta‘limga oid so‘nggi tadqiqotlarga qaratilgan. Pedagoglar doimiy ravishda o‘z ustida mustaqil ishlaydi, ilmiy izlanishlar qila-di. Bizning maktablarda ta‘limga oid ilmiy tadqiqotlar qilayotgan muallimlar sanoqli.

Ta‘lim jarayonining nazariy jihatlari Finlyandiya amaliyot bilan qattiq integratsiyalashgan. Maktabgacha, maktab va oliy ta‘limdagi islohotlar asoschisi o‘qituvchilar hisoblanadi. Ular mavjud Milliy dasturni boyitish, qo‘shimchalar kiritish yoki tubdan o‘zgartirish huquqiga ega. Mamlakat ta‘lim tizimiga Milliy dastur ko‘rsatma sifatida beriladi. Mazmun-mohiyatini boyitish, o‘zgartirishlar kiritish, mavzulashtirish professor-o‘qituvchilar tomonidan amalga oshiriladi. Bizning maktablarimizda esa nazariy bilim kuchli beriladi, ammo o‘quvchilarning olgan tushunchasini amaliyotda qo‘llash jarayoni sust boradi. O‘qituvchi-lar tayyor dastur asosida dars o‘tadi. Ta‘lim berish jarayonida dasturda ko‘r-satilgan mavzulardan chetga chiqil-maydi.

Finlyandiya ta‘limining muvaffaqi-yati ortida tenglik, izchil va birgalikda-gi sa‘y-harakatlar yotadi. Hozirgi ta‘lim tizimining ba‘zi asosiy xususiyatlari 1960-yillarning oxiri va 1970-yillarda o‘qituvchilar ta‘limidagi islohotlar bilan bog‘liq. Ulardan biri “milliylashtirilgan, standartlashtirilgan” testlari bekor qilish edi. Fin maktablari o‘quvchilar muvaffaqiyatini aniqlash uchun stan-dartlashtirilgan testlardan foydalan-maydi. Buning uchta asosiy sababi bor. Birinchidan, baholash amaliyoti milliy o‘quv dasturida yaxshi asos-langan bo‘lsa-da, Finlyandiya ta‘lim siyosati maktablar faoliyatining muhim qismi sifatida individual ta‘lim va ijodkorlikka yuqori ustuvorlik beradi. Shuning uchun har bir o‘quvchining maktabdagi muvaffaqiyati statistik ko‘rsatkichlardan ko‘ra, ko‘proq uning individual rivojlanishi va qobiliyatiga qarab baholanadi. Ikkinchidan, ta‘lim-ni ishlab chiquvchilar o‘quv dasturlari, o‘qitish va maktabdagi test o‘tkazish emas, balki o‘qituvchilarning amaliyoti-ni kuchaytirish kerakligini ta‘kidlaydi.

Finlyandiya maktablarida o‘quvchilar-ni baholash ta‘lim jarayoniga kiritil-gan bo‘lib, butun o‘quv yili davomida pedagoglar va o‘quvchilar faoliyatini yaxshilash uchun qo‘llanadi. Uchinchi-dan, mamlakatda o‘quvchilarning akademik ko‘rsatkichini aniqlashga tashqi baholovchilarning emas, mak-tabning mas‘uliyati sifatida qaraladi. Demak, mamlakatimiz ta‘lim tizimidagi muammolarni bartaraf etish uchun ilg‘or milliy va xorijiy tajribalar, xalqaro baholash dasturlari talablarini inobatga olgan holda o‘quv dasturlari, o‘qitish metodikasi va ta‘lim sifati baholash tizimini takomillashtirish, o‘qituvchilarga ishonchni orttirish, pedagoglarning o‘z ishiga mas‘uliyatini oshirish juda muhim.





ESSE

Vatan manzumasi ko'chgan yuraklar

YANGI O'ZBEKISTON

Shodmonqul SALOM, O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi

Dashtda tuyaqorin degan o'simlik bor. Tikanakli butasimon bu o'simlikning ildizi juda mo'rt bo'ladi. Sal shamolga ham tomiri uziladi-da, lopillab uchib-yumalab soylarni to'ldirib tashlaydi. Bu gijoh to'yimli yemish ham sanalmaydi, yoqsang bir uyumiga choy ham qaynamaydi. Poyasi po'k, mo'rt... Oqibat, yumalab yurib-yurib bir ovloq jilg'ada chirib ketadi... Tabiiy, har bir katta-kichik gijohning tomiri bor. Shu tomir otgan joyi uning manzil-makoni, deylik, vatanidir.



sabab, siyqalashib borayotgan vatan, vatanparvarlik tuyg'usini yanada kuchaytirish edi. Nazarimda, rejissyor Haydarali Qosimov boshliq jamoa bu maqsadni uddalay oldi. Ammo bir narsa oydinlashdiyam: bu kabi chinakam, professional tomosha ishlari muntazam bo'lishi kerak ekan! Yoshlar o'zlariga ergashadigan, havas qiladigan shaxslar bilan tez-tez ko'rishib turishi zarur ekan.

Ayni damda gap bevosita bu tadbir haqida emas, ammo hech vaqtda eskirmaydigan, tashlab qo'yib bo'lmaydigan masala — vatanparvarlik hissi bilan uyg'un ayrim mulohazalarimga ham shu tadbir sabab bo'ldi.

Keyingi paytda quloqqa ko'p chalingan gaplardan biri taxminan shunday bo'layotir: "Vatanparvarlik, ma'naviyat mavzularini ko'p muhokama qildik, siyqasini ham chiqarib yubordik..."

Shunga o'xshash fikrlar ijtimoiy tarmoqlarda ham aylanib yuradi.

Bunday gap-so'zlarga duch kelsam, yuqorida tilga olingan tadbirlar asnosidagi ayrim voqealar esimga tushadi va ularni chog'ishtirib quyidagi fikrlarga to'xtalaman.

Termiz shahridagi San'at saroyida dasturimiz boshlanishidan sal avval saroy ayvoniga chiqdim. U yerda to'planib turgan universitet talabalarining suhbatlari e'tiborimni tortdi.

— Nima bo'larkan o'zi, qanaqa tadbir ekan? — dedi ulardan biri sherkilariga.

— "Vatan manzumasi" deb yozgan-ku! Qo'shiq bo'lsa kerak-da. G'iyos Boytoyevni ko'rdim.

— G'iyos Boytoyevning konserti emasmi?

— Yo'g'e... bu vatan haqida konsert.

— "Vatan, vatan" deb ensani qotirar ekan-da, yana...

— Ketdikmi, bo'lmasam...

— Domla qarab turibdi, qochmaylik...

— Kirib ko'raylikchi...

Bolalarni eslab qolishga harakat qildim. O'tirgan joylarini ham o'zlariga sezdirmay aniqildim.

— Sizing she'ringiz ham zo'r ekan. O'zingiz yozganmisiz?

— Ha, bir o'zim, — dedim hazillashib, so'ng davom etdim. — "Vatan, vatan" deb ensani qotirsayam kirib turish kerak shunday tadbirlargayam... — Talabalariga o'z gaplarini kesatdim.

Shu gapni aytgan yigitcha, yerga qaradi-da:

— Endi, bilmagandik-da bunday yaxshi konsertligini...

Ularning taassuroti menga ham ta'sir qildi... demak...

qoli o'ziga yarashgan yigit men tarafdori ochiq oynadan suv uzatdi va "Marhamat, bema'loli!" dedi va shoshib nari ketdi. Yarim litrluk suv idish sirtiga "Duo qiling, Grinkard chiqsin!" deb yozilganini suvni olib bo'lgach ko'rdim... ochig'i, ro'zador qalbm o'rtanib ketdi...

Jizzax shahrida tadbirdan so'ng, tomoshabinlardan biri taniqli san'atkor Shohida Ismoilova bilan suratga tusharkan, ulardan beriroqdagi yana bir ayol shunday dedi:

— Shohida opaning ona siymosi baribir boshqachada... bu kishida haqiqiy o'zbekka xos istara bor...

— Rixsi Ibrohimovadan keyin sahnada haqiqiy onani ham ko'rmay qolgandi, odam...

Ushbu fikr-taassurotlardan bir narsani teran ilg'adim. Bizning — ma'naviyat, madaniyat sohosi vakillarining xalqimizdan qarzi juda katta ekan. Bu soha vakillarining qilishi lozim bo'lgan ishlari bisyor ekan halli. Shoir Muhammad Yusufning bir satri miyamda aylandi:

Yomon she'r yozsang ham, boshingni silab, "Kam bo'lma, bolam", deb yashaydi o'zbek...

Shu xalqning bir bo'laginiga ko'rdim men. Ularning kayfiyati, yigit-qizlarning qiziqishi, intilishlarini ilg'adim. Bu insonlarning bo'g'zida turgan, aytishga andisha yoki hayiqish yo'l bermayotgan so'zlarni tingladim. Dilim og'rikan bo'lsa, o'zimdand og'ridi, ko'nglim to'lmagan bo'lsa, o'zimni aybdor sezdim. Termizlik yigitchening "vatan-vatan" deganda ensasi qotishiga ham, andijonlik, barq urib turgan hayoti hali oldinda bo'lgan o'g'lonning eng katta orzusi "Grinkard" ekanini ham, ona siymosini, haqiqiy qahramonlarni, asli o'zbekni sog'ingan tomoshabinlarni ham tushundim.



Tadbir tugagach, foyeda o'sha yigitlarga tag'in duch keldim. Harqalay ketib qolmagan ekan. Yoniga bordim-da, gap qotdim: — Qalay bo'ldi, tadbir yoqdimi?

Ular meni sahnada ko'rganini uchin darrov tanishdi va qimtinibroq yonimga kelishdi.

Zo'r bo'ldi. Juda yoqdi. Ayniqsa, marhum askarlarning xotirasiga bag'ishlangan joyi.

Andijon shahrida kechki payt iftorlik mahali ovqatlanish uchun mashinalarda choyxonaga yo'l oldik. "Og'iz ochar"ga besh-o'n daqiqaga qolgan edi. Ulovimiz svetofordaxtadi. Svetofordaxta, arabiy xurmo tarqatib, savob umidida yurgan bir necha yigitlar yo'lovchilarga beminnat xizmat ko'rsatardi. Bu yaxshi odat, ezgu ish, albatta. Suv tarqatayotganlardan biri, tim qora so-

HAMKORLIK

Boshlanishi 1-betda

Hamkorlikning amaliy samarasi sifatida yurtimizda "Turkiy adabiyot durdonalari" deb nomlangan 100 jildlik kitoblarni turkumi nashr etilgani, unga O'zbekiston, Turkiya, Qozog'iston, Qirg'iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlaridan jami 450 dan ziyod mumtoz va zamonaviy shoir, adib va mutafakkirlar asarlari kiritilganini ta'kidlash mumkin.

Shuningdek, turkiy dunyoning siyosat, ilm-fan, tibbiyot, adabiyot va san'at soha-



larida ulkan yutuqlarga erishgan namoyandalarni rag'batlantirish maqsadida buyuk shoir va mutafakkir Alisher Navoiy nomidagi xalqaro mukofot ta'asis etilgani madaniy hayotimizda muhim voqea bo'ldi.

TURKSOYning 30 yillik qutlug' sanasiga bag'ishlangan madaniyat kunlarining a'zo davlatlar poytaxtlari hamda BMT, UNECKO kabi nufuzli xalqaro tashkilotlarning rasmiy qarorgohlarida keng nishonlanishi — bu avvalo, jahon hamjamiyatining turkiy xalqlar madaniyatini, urf-odat va qadriyatlariga yuksak hurmat-ehtiromi ramzidir.

Poytaxtimizda o'tkazilayotgan madaniyat kunlari tadbirlarida ham a'zo davlatlarning atoqli madaniyat va san'at namoyandalari, adiblari, rassomlari, kino ijodkorlari, iste'dodli yoshlari jam bo'lgan. "O'zbekiston" xalqaro anjumanlar saroyida Xalqaro turkiy madaniyat tashkiloti yubileyiga bag'ishlangan tantanalilar va konsert dasturi bo'lib o'tdi. Toshkent shahridagi O'zbekiston amaliy san'at va hunarmandchilik tarixi davlat muzeyida "Turk dunyosi" nomli rassomlar va hunarmandlar ko'rgazmasi, turkiy dunyo xalqlarining milliy oshxonalariga oid gastronomik namoyish tashkil etildi.

Shuningdek, turkiy tili davlatlarning nufuzli xalqaro tashkilotlari rahbarlari va O'zbekiston Respublikasi Madaniyat va turizm vazirligi o'rtasida madaniyat va san'at, noshirlik, media, turizm kabi sohalarida hamkorlikni kengaytirishga oid muloqot va uchrashuvlar bo'lib o'tdi. Muloqotlar davomida turkiy tili davlatlar vakillari hamkorlikning galdagi istiqbollari belgilab oldi.

Biz O'zbekiston Madaniyat va turizm vaziri bilan birgalikda mamlakatimiz hamda TURKSOY davlatlari madaniy-ma'rifiy hamkorligini ayrim jihatlarni ko'rib chiqdik, — deydi tashkilot bosh kotibi Sulton Rayev ommaviy axborot vositalariga bergan intervyusida. — Kelgusida birgalikda amalga oshirilishi kerak



bo'lgan qator dolzarb masalalar xususida fikr almashdik. Ulardan biri — jadedlar faoliyatiga oid simpozium o'tkazish. Tarixdan bilimimiz, jadedlar nafaqat O'zbekiston, shuningdek, butun Markaziy Osiyodagi ilk ma'rifiy harakatlardan sanaladi.

Yana bir muhim masala — Farg'ona viloyatida TURKSOY olamining xalqaro etnografik liboslar modasi festivalini o'tkazish bo'yicha ham maslahatlashib olindi. Uchrashuvlarda TURKSOY tashkilotining 30 yilligi munosabati bilan madaniyat kunlari ishtirokchilariga O'zbekiston Prezidenti yo'llagan tabrik xalqaro miqyosdagi bu tantanalarga o'z-gacha

ruh, yanada ko'tarinkilik bag'ishlagani qayd etildi.

Madaniyat kunlari doirasida bir guruh taniqli madaniyat va san'at namoyandalari turkiy davlatlar orasida madaniyat va san'atni keng targ'ib qilgani, mukammal ijro va professional mahoratga ega, turkiy davlatlarda obro' va etibor qozongan shaxslar uchun ta'asis etilgan "Oltin medal" bilan taqdirlandi.

Ushbu yuksak mukofotga munosib ko'rilganlar safida O'zbekiston xalq artistlari Sherali Jo'rayev, Yodgor Sa'diyev, Ozodbek Nazarbekov, Yulduz Usmonova, O'zbekiston Badiiy akademisi

yasi raisi Akmal Nuriddinov, O'zbekiston xalq shoiri Sirojiddin Sayyid, davlat va jamoat arbobi, O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan madaniyat xodimi, professor Baxtiyor Sayfullayev (marhum) kabi elimizning suyuqli farzandlari bor.

So'nggi yillarda turkiy dunyo mamlakatlari orasidagi do'stlik munosabatlari har tomonlama rivojlanib bormoqda, — deydi O'zbekiston Respublikasi madaniyat va turizm vaziri Ozodbek Nazarbekov. — Jumladan, madaniyat sohasidagi hamkorlik aloqalari yangi bosqichga chiqdi. O'zaro hamjihatlikda ildizlari bir nuqtaga tutashuvchi qadim turkiy madaniyatni rivojlantirish yo'lida ko'plab loyihalar amalga oshirilmoqda, munosabatlarga tobora mustahkamlanmoqda.

Mamlakatimizda tashqi siyosat sohasida olib borilayotgan ochiq va konstruktiv, o'zaro ishonch va hurmatga asoslangan qatnash jarayonlari qo'shni va qardosh davlatlar bilan samimiy, do'stona, o'zaro birodarlik va yaxshi qo'shnichilikka asoslangan munosabatlarni yo'lga qo'yishda muhim asos bo'lmoqda. Bu jihatlar turkiy tili davlatlarning o'zaro hamkorligini misli ko'rilgan tarzda yangi bosqichga olib chiqish imkonini bergani bilan ham ahamiyatlidir.

Nodir MAHMUDOV, "Yangi O'zbekiston" muxbiri

"Yangi O'zbekiston" va "Правда Востока" gazetalarini tahririyati DUK

MOUSSIS:
O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi

Bosh muharrir:
Salim DONIYOROV

Tahririyatga kelgan qo'lyozmalar taqriz qilinmaydi va muallifga qaytarilmaydi.
Gazetaning yetkazib berilishi uchun obunani rasmiylashtirgan tashkilot javobgar.
Gazeta tahririyat kompyuter markazida sahilalandi.
Gazetaning poligrafik jihatdan sifatlari chop etilishiga "SHARQ" NMAK mas'ul.
Bosmaxona telefoni: (71) 233-11-07

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan 2020-yil 13-yanvarda 1047-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Nashr indeksi — 236. Buyurtma G-646.
41011 nusxada bosildi.
Hajmi — 3 taqob. Ofset usulida bosilgan. Qog'oz bichimi A2.
Bahosi kelishilgan narxda.

"SHARQ" nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasida chop etildi. Bosmaxona manzili: Toshkent shahri, Buyuk Turon ko'chasi, 41-uy.

Navbatchi muharrir: Risolat Madiyeva
Dizayner: Zafar Ro'ziyev

Manzilmiz: 100029, Toshkent shahri, Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy

Topshirildi — 03:15